


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish
mutaxassisligining malaka talablari*

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 21»
08 dagi 307 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1. Qoʻllanish sohasi.....	4
1.1.1. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi Malaka talabining qoʻllanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi boʻyicha magistrlar kasbiy faoliyatining obʻektlari.....	4
1.2.3. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi boʻyicha kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi boʻyicha kasbiy vazifalari.....	5
2. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi boʻyicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalar egallashni taʼminlaydigan fanlar va amaliyotlarga qoʻyiladigan talablar.....	7
2.3.1. 70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan oʻquv fanlari, bloklar boʻyicha soatlar va kreditlar	8
2.3.2. 70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish magistratura mutaxassisligi boʻyicha taʼlim dasturining tuzilishi.....	8
2.4. Kvalifikatsiya.....	8
Bibliografik maʼlumotlar.....	9
Kelishuv varagʻi.....	10

1. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligining umumiy tavsifi

70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil kilinadi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor – o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70810601-Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish – Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi xuzuridagi Kadastr agentligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi vazirliklari va ularning tasarrufidagi tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va suv xo'jaligi bo'yicha tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruvi organlari, geodeziya va kartografiya sohasining turli xil turlarini ishlab chiquvchi va ulardan foydalanuvchi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, sug'orish tizimi boshqarmalari, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar turli xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlari majmuini qamrab oladi.

1.2.2. 70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari.

- davlat va nodavlat tashkilotlar, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

-yer resurslarini boshqarish sohalari va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalarining yer va bino inshootlarini qiymatlarni qayta ishlash uslublarini takomillashtirish;

-yerlardan foydalanish jarayonlarini avtomatlashtirishni modellashtirish uslubiyatini ishlab chiqish;

-hududlarda landshaftli yer tuzish, yer resurslarini boshqarish va yer xuquqi ishlarini tahlil qilish;

- yerdan foydalanish tizimlari, yerdan foydalanuvchi sub'ektlar va ma'muriy-xududiy birliklarni tashkil qilish.

Mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistratura bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining turlari.

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- loyiha-konstruktorlik faoliyati;
- ekspluatatsion va texnik servis faoliyati;
- texnologik-ishlab chiqarish faoliyati.

1.2.4. 70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari.

70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofik bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirishda zamonaviy geodezik asbob-uskunalarining qo'llanilishini tahlil qilish, tizimlarni, jarayonlarni, jixozlar va materiallarni standartlashtirish bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risolalar, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharxlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida so'ngi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqida malumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

Tashkiliy boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

-tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, hodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt texnikaviy xavfsizlik faoliyatini rejalashtirish, xisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, xuquqiy hamda me'yoriy xuquqiy xujjatlar;

- reja, xisob-kitob xujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, texnikaviy xavfsizlik sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha texnikaviy samaradorlikni aniqlash;

- qabul qilinadigan qarorlarni texnikaviy xavfsizlik, ijtimoiy- texnikaviy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan xujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mexnat resurslaridan samarali foydalanish iftisosiy xavfsizligini rejalashtirish va amalga oshirish;

- loyihaviy va dasturiy xujjatlarni ishlab chiqish texnikaviy xavfsizlikni ta'minlash, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- yer resurslaridan foydalanish va boshqarish faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- kasbga oid muammolar yechishlarini amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarini ishlab chiqish va boshqarish;

- yer resurslarini boshqarishga oid ishlarni bajarish bilan bog'liq faoliyatini muvofiqlashtirish;

- yer resurslarini boshqarish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlashi;

- yer resurslarini huquqiy, ekologik va iqtisodiy muhofaza qilish usullarini va ularning qo'llanilishini bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy shakllarini joriy qilish, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- yer resurslarini boshqarishni talablarini qanoatlantiruvchi samarali hamda tejankor texnologiyalarni joriy etishni bilishi;

- yer resurslaridan foydalanish va boshqarishni ilmiy-uslubiy asoslar va texnologiyasi, ular to'g'risida umumiy tushuncha, uning mazmuni va vazifalari, yer kadastrini va yer tuzishning tarkibiy qismlari va bosqichlari haqida tasavvur hosil qilishi;

- yer resurslarining iqtisodiy samaradorligi, intensivatsiyalash, qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish haqida tasavvur hosil qilishi;

- yer tuzish loyihalarida yer resurslaridan foydalanilishni iqtisodiy asoslash, bozor, hududiy va ishlab chiqarishining xususiyatlari, ishlab chiqarishni konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish va joylashtirishni bilishi va ulardan foydalanishni ta'minlashi;

- 70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish xamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalanish;

- zamonaviy axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mexnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar

-ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan hulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

-pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda innovatsion yondashishni bilish;

-ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lish;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, hodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mexnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- tarmoqlar va soxalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mexnat resurslaridan samarali foydalanishda iqtisodiy xavfsizlik tamoyillarini qo'llay bilishi;

- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha xavfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha texnikaviy xavfsizlikni ta'minlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha texnikaviy strategik rejalarni ishlab qilish, texnikaviy xavfsizlik sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilishi va ko'nikmasigi ega bo'lishi.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladi **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlari- magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Tanlov fanlari – mutaxassisligi doirosida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. 70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	960	32
Tanlov fanlar	540	18
Ilmiy faoliyat	2100	70

2.3.2. 70810601 – Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning xajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
1.00		Majburiy fanlar	960	32	
1.01	ITM5104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	YFB5108	Yerdan foydalanishda integratsion boshqaruv	240	8	1,2
1.03	HR5108	Hududlarni rivojlantirish	240	8	1,2
1.04	YFI5108	Yerdan foydalanish iqtisodi	240	8	1,2
1.05	YBA6104	Yer resurslarini boshqarishni huquqiy asoslari	120	4	3
2.00		Tanlov fanlar	540	18	
2.00		<i>Tanlov fanlar (5 ta fan)</i>	540	18	1,2,3
		Jami	1500	50	
		Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	960	32	1,2,3
		Ilmiy pedagogik ish va ilmiy seminar	240	8	1,2,3
		Ilmiy amaliyot (stajirovka)	900	30	3
		Jami	2100	70	
		HAMMASI	3600	120	

2.4. Kvalifikatsiya: Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish, tadqiqotchi pedagog.

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, yer munosabatlari, yer resurslaridan foydalanish va uni boshqarish, yerdan foydalanish, yer huquqi, ijara munosabatlari, mulk huquqi, yer huquqi munosabatlari, yerni qayta tiklash, yer baholash, yer uchastkasi va ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish, yer uchastkalarini shakllantirish, kadastr, yerdan foydalanish iqtisodi, integratsion boshqaruv, servitut, hududlarni rivojlantirish, yer konturi, geoaxborot tizimlari, mustaqil ta'lim, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.